

MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TA'LIM-TARBIYASI

Muradullayeva Aziza Jumanazar qizi,

Asadova Mariya Zuyodullayevna,

Jumayeva Pokiza Zafarovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti Surxondaryo

Kampusi Maktabgacha ta'lim yo'nalishi I kurs talabalari

Annotatsiya : Ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarning psixologik, ijtimoiy-va jismoniy rivojlanishi hamda ularning ta'lim-tarbiyasini samarali tashkil etishning asosiy tamoyillari tahlil qilindi. Maqolada zamonaviy ta'lim dasturlarining bolalarning tafakkur, nutq, ijtimoiy ko'nikma va mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: maktab yoshi, rivojlanish, ta'lim-tarbiya, psixologik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические, социальные и физические особенности развития детей возраста, а также эффективные педагогические подходы к организации их образования и воспитания. В работе раскрывается значение современных образовательных программ в развитии мышления, речи, социальных навыков и самостоятельности учащихся.

Ключевые слова: школьный возраст, развитие, обучение и воспитание, психология, личностно-ориентированный подход.

Annotation: This article examines the psychological, social, and physical development of children and the effective pedagogical methods for organizing their education and upbringing. Drawing on the works of Uzbek scholars Sh. The article highlights the role of modern educational programs in fostering thinking, speech, social skills, and independent learning among students.

Keywords: *school age, child development, education, upbringing, psychology, learner-centered approach.*

KIRISH

Maktabgacha yoshidagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi — zamonaviy ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi. Chunki aynan shu davr bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarda intellektual, ijtimoiy-emosional, jismoniy hamda nutqiy rivojlanish jarayonlari jadallashadi. Ta'lim jarayonining to'g'ri yo'lga qo'yilishi esa bolalarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, muammolarni hal etish va o'z-o'zini boshqarish kabi kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining individual xususiyatlari maktabgacha yoshdagi bolaning davlat talablariga to'liq mos keladigan ta'lim yutuqlariga qo'yiladigan talablarni cheklaydi va ta'lim dasturini o'zlashtirishda kutilayotgan natijalar shaklida aniqlash zarurligini belgilaydi[2.,33b].

Bugungi kunda ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilanishi, raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish, bolalarning shaxsiy qobiliyat va ehtiyojlarini aniqlash hamda differensial o'qitish metodlarining qo'llanilishi maktab yoshidagi bolalar rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun bolalar rivojlanishining nazariy asoslari, ta'lim-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi va pedagogik ta'sirning psixologik mexanizmlarini chuqur o'rganish zarurdir.

Mazkur maqolada maktab yoshidagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari, ta'lim-tarbiyaga oid ilmiy qarashlar, shuningdek, o'zbek pedagog olimlari tomonidan ilgari surilgan pedagogik-psixologik tamoyillar tahlil etiladi. Shu orqali maktab davri ta'lim-tarbiyasini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktab yoshidagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish mazkur jarayonning ko'p qirrali, murakkab va uzluksiz rivojlanib borayotgan soha ekanligini ko'rsatadi. Psixologiya va pedagogika fanlarida ushbu masala haqida bir qator olimlar nazariy qarashlar bildirgan bo'lib, ular ichida o'zbek pedagoglari Sh. Sodiqova va N. Qayumovaning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Sh.Sodiqova o'zining "Maktabgacha pedagogika" darsiligidagi –"Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi"[4., 4b] deya fikr bildiradi

L.S.Vigotskiy o'z asarlarida maktabgacha yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanish dinamikasini chuqur tahlil qilib, bolalarda kognitiv jarayonlarning shakllanishi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligining asosiy mezonini ekanligini ta'kidlaydi. Ma'lum yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini bilmay turib, ularga maqsadga muvofiq ravishda ta'lim va tarbiya berib bo'lmaydi. Bolaning har bir yoshi o'z qiyinchiliklariga ega bo'ladi va o'ziga nisbatan maxsus munosabatda bo'lishni talab qiladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarga nisbatan psixologik jihatdan to'g'ri keladigan va yaroqli bo'lgan narsa, ko'pincha o'smirlarga nisbatan yaroqsiz va xato bolishi mumkin.[3., 11b] Maktab yoshiga kelib bola mantiqiy, analitik va abstrakt tafakkurga o'ta boshlaydi.

Diqqat, xotira, idrok va nutq faoliyati yangi darajada shakllanib, o'quv jarayonini ongli qabul qilish imkoniyati kengayadi.

Pedagogning emotsional qo'llab-quvvatlashi va ijobiy muloqot bolalarning o'quv motivatsiyasini oshiruvchi asosiy omildir.

Ta'lim mazmuni bolaning yosh psixologik xususiyatlariga mos bo'lishi uning faol ishtirokini ta'minlaydi.

Sodiqovanning ilmiy qarashlaridan ko'rinadiki, maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda psixologik rivojlanish qonuniyatlarini bilish pedagog faoliyatining ajralmas qismi sanaladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - bolalarning individual qobiliyat, ehtiyoj va imkoniyatlariga mos o'qitish metodlarini tanlash zarurligi.

O'quv motivatsiyasi - bola rag'batlantiruvchi pedagogik omillar, maqtoov, ijobiy muloqot, kompetensiyaviy yondashuv orqali shakllanishi.

Ijtimoiy moslashuv - sinfdagi o'zaro munosabatlar, guruhda ishlash, do'stlik munosabatlari bolaning psixik rivojlanishiga bevosita ta'sir etishi.

Faol o'qitish metodlari - interaktiv usullar o'quvchini jarayon subyektiga aylantiradi, uning fikrlash faolligini oshiradi.

XULOSA

Maktabgacha yoshidagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasi ilmiy jihatdan murakkab, ko'p omilli jarayon bo'lib, u bolalarning intellektual, psixologik, ijtimoiy hamda axloqiy kamolotini shakllantiradi. Adabiyotlar tahlili, xususan,

Tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Psixologik rivojlanish ta'lim-tarbiyaning markazida turadi

Maktabgacha yoshida bolaning mantiqiy fikrlashi, nutqi, diqqat va xotirasi jadal rivojlanadi. Shuning uchun o'qitish mazmuni bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tashkil etilishi zarur.

Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, o'quv motivatsiyasi hamda o'quv jarayonidagi muvaffaqiyati ota-ona bilan maktab o'rtasidagi muntazam hamkorlikka bog'liqdir.

Umuman olganda, maktabgacha yoshidagi bolalarning rivojlanish jarayonini chuqur o'rganish va ilmiy asosga ega ta'lim-tarbiya mexanizmlarini ishlab chiqish ma'naviy barkamol, fikrlash doirasi keng, intellektual salohiyatli avlodni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2020.

2. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi Toshkent-2022 y
3. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Rivojlanish psixologiyasi. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti Toshkent-2018
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2019.
5. Vigotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Pedagogika, 1991.
6. Piaget J. Psixologiya razvitiya rebenka. — Moskva: Prosveshcheniye, 2003.

